

Yodgarova Gulnora Isroil qizi

Assistent Meyliyeva Shoxista Rustamovna

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida no'xot yetishtirishning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. No'xot ekinining biologik va agrotexnik xususiyatlari, uning yuqori oziqaviy qiymati hamda tuproq unumdorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, no'xot yetishtirishni kengaytirish orqali aholining oqsilga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hosildorlikni oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается значение возделывания нута в условиях Узбекистана в обеспечении продовольственной безопасности и развитии сельского хозяйства. Проанализированы биологические и агротехнические особенности культуры нута, его высокая пищевая ценность, а также роль в повышении плодородия почвы. Особое внимание уделено вопросам расширения посевных площадей нута, удовлетворения потребности населения в растительном белке, повышения урожайности и развития экспортного потенциала.

Kirish

O'zbekiston qishloq xo'jaligida dukkakli ekinlar muhim o'rin tutadi. Shular orasida no'xot (*Cicer arietinum* L.) o'zining oziqaviy qiymati, agrotexnik afzalliklari hamda iqtisodiy samaradorligi bilan alohida ahamiyatga ega. No'xot qadimdan xalqimiz oziq-ovqat ratsionida keng qo'llanib kelinayotgan ekin bo'lib, uning doni oqsil, uglevod, vitamin va mineral moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizning tuproq-iqlim sharoitlari no'xot yetishtirish uchun qulay bo'lib, ushbu ekin kam suv talab qilishi va qurg'oqchilikka chidamliligi bilan boshqa qishloq xo'jaligi ekinlaridan ustun turadi. Bundan tashqari, no'xot tuproq unumdorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi, chunki u ildizida yashovchi tuganak bakteriyalar yordamida havodagi erkin azotni o'zlashtiradi va tuproqni azot bilan boyitadi.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining oqsilga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda eksportbop mahsulotlar yetishtirishda no'xot yetishtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, O'zbekistonda no'xot ekinini yetishtirish hajmini oshirish va uni ilmiy asosda rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: noʻxot, dukkakli ekinlar, oziq-ovqat xavfsizligi, oqsil manbai, tuproq unumdorligi, agrotexnika, hosildorlik, eksport salohiyati

Oʻzbekiston sharoitlarda noʻxot asosan lalmi yerlarda yetishtirilgan va bunday yerdarda uning hosildorligi 5 - 8 s/ga gacha boʻlgan (V.V.Balashov, V.N.Cherkov, 1957; M.Niklyudov, G.A.Antonova, 1967; V.B.Yenken, 1960; D.N.Shankin, 1947).

Lekin, noʻxot sugʻoriladigan yerlarda ekilganda L.P.Gribinkova 1945, N.N.Klyuyev, 1953, L.M.Pavlova, M.I.Merojnechenko, 1953, G.M.Polova, M.M.Korsokovlar maʼlumotlarida uning hosildorligi yuqori boʻlganligi qayd qilingan. Oʻzbekiston sharoitida 1990 yillardan boshlab sugʻoriladigan yerlarda noʻxot yetishtirish texnologiyasi oʻrganilib kelinmoqda. Noʻxot ekiniga sugʻorish tizimi, ekish usullari, urugʻning ekish meyor va boshqa agrotexnik tadbirlarning taʼsiri oʻrganilgan. Jumladan: I.Hamdamiyov, P.Shukurillayev, S.Mustanovlar fikricha sugʻoriladigan yerlarda gektaridan 20-34 sentnergacha noʻxatdan hosil olish mumkinligini qayd etilgan.

S.B.Mustanov 1988-1993 yillar Samarqand viloyati Chelak tumani P.Nurmonov jamoa xoʻjaligida oʻtloqi va boʻz tuproqli sugʻoriladigan yerlari sharoitida olib borgan tajribalari shuni koʻrsatadiki sugʻorilmagan variantda noʻxot oʻsimligining asosiy ildizi pastga chuqurlikka qarab 126,6-127,3 sm, yon ildizlar yon tomonga qarab 65,6-71 sm gacha borsa, 3 marta sugʻorilganda esa 78,6 sm chuqurlikka va yon tomonga qarab 46,3-47 sm tarqalishi mumkin. Hosildorlik esa sugʻorilmaganda Yulduz navida 11,4 s/ga, 3 marta sugʻorilganda 26,6 s/ga Milyutin-6 navida esa sugʻorilmaganda 11,2 s/ga, 3 marta sugʻorilganida 24,4 s/ga ni tashkil etgan. Bu olingan maʼlumotlarga asosan S.B.Mustanov Samarqand viloyatining sugʻoriladigan yerlari sharoitida Yulduz navini yetishtirish uchun uni oʻsuv davrida 3 marta sugʻorishni tavsiya qiladi.

Xudi shunday maʼlumotlar Samarqand viloyatining Paxtachi tumani «Xumori» jamoa xoʻjaligi sharoitida Z.S.Bobomurodov (1995-1996) tamonidan ham qayd etilgan. Z.S.Bobomurodovning taʼkidlashicha sugʻorish soni 3 martagacha oshirilganda hosil oshib borgan. Eng yuqori hosildorlik noʻxatni oʻsuv davrida 3 marta sugʻorilganda kuzatilgan. Bunda noʻxatning K-295 namunasidan 34,2 s/ga, K-296 namunasidan 35,1 s/ga hosil olingan. Hamda bahorda ekilgan K-295, K-296 namunalarida ildiz sistemasining tarqalishi sugʻorilmaganda K-295 namunasida chuqurlikka 104,8 yoniga esa 51,3 sm ni va K-296 namunasida 78,2-62,4 sm ni tashkil etgan.

I.H.Hamdamiyov, P.SH.Shukurullayev, S.B.Mustanov (1983-1990) larning taʼkidlashlaricha noʻxatni sugʻorish noʻxot oʻsimligini boʻyiga va dukkak soniga taʼsir qilibgina qolmasdan, urugʻning ogʻirligiga ham qisman boʻlsada taʼsir qiladi. Ularning tajribalari shuni aniqladiki, sugʻorilmagan noʻxot urugʻining ogʻirligi oʻrtacha Yulduz navida 337,9 grammni tashkil qilsa, sugʻorilganda 328,8 grammni tashkil qildi. Milyutin-6 navida ham bu koʻrsatkichlar 338,5 va 330,2 grammni tashkil qilgan.

Demak, tajribalarshuni ko'rsatdiki, no'xatni sug'oriladigan yerlarda ekish uning hosilini oshishiga ijobiy ta'sir kursatadi.

R.R.Xusainov takidlashicha no'xat urug'i tarkibida burtishgacha (krasnokut 195 navida) 13,2% va burtganidan keyin 106,2% miqdorda suv bo'lgan.

O'rta osiyo tajriba stansiyasi institutda lalmi va sug'oriladigan yerldarga no'xat ekib sug'oriladigan shaoritdagi no'xatning unib chiqishida bir marta sug'orilganini guktaridan 16,4 s/ga hosil olingan.(S.Z.Bobomurodov 1997) Bu borada chet el adabiyotlarida xam bir kancha adabiyotlarni xam kurish mumkin.

Л.П.Герибенкова (1945) ma'lumotida azarboyjon sharoitida no'xatni shoxlanish, gunchalash va gullash davrida sug'orilganda eng yuqori hosil olingan (15,8) bunda xar bir sug'orish uchun 200-100 kub metr suv sarflangan

No'xat kurgokchil o'simlik lekin sug'orilganda hosildorlig ikki baravar oshadi deb kayt kiladi. М.И.Капсиков (1972) va sug'oriladigan yerlar uchun dastlabki material sifatida birinchi navbatda Кубанский 16 (K-16) Савхозный-14 (K-1243) Сериднеазиоцкий – 400 (R-400) Высокорослый-30 (K-1258) ва Винеоьский-17 (K-1241) navlarini tavsiya etadi. B.Sandnu (1979) ning ma'lumotiga kura Hindistonning sug'oriladigan yaxshi tekis va kumok yerlarid sug'orish usullarga boglik ravishda 18,7 s/ga don 21,4 s/ga gacha hosil olishga muvoffak bulishgan.

K.Kpalival. S.P.Romqiri (1997)lar shuni ta'kidlaydiki no'xat hosili o'simlikdagi dukkak soni va dukkaklardagi don sonini asosiy omil sifatida bevosita ta'sir etadi.

Y.S. Tomer (1984) Hindistonning Xarisna va Kisor viloyatlarining sug'oriladigan yerlarida yetishtirish uchun no'xatni N-200 Gaurak navini tavsiya etadi. Hamda bu navlardan 19-22 s/ga gacha hosil yetishtirish mumkinligini kayt etadi.

Maxsus adabiyotlarning qisqacha shartidan shuni kayd kilish mumkinki no'xat kurgokchi qisqa chidamli o'simlik lekin sug'orish natijasida uning hosildorligi oshadi. O'zbekistonda utkazilgan tajribalarda sug'orish natijasi no'xatning xuraki va xashaki navlaridan yuqori hosil olinganligini kurish mumkin. Bundan tashkari Rossiyada, Ozorboyjan va Hindistonda utkazilgan tajribalar xam shuni ta'kidlaydi.

Xulosa

No'xat tuproqni biologik azotga boyituvchi, unumdorligini oshiruvchi qimmatbaho oziq-ovqat, yem-xashak ekin bo'lishi bilan birga qurg'oqchilikka, issiq va sovuqqa chidamli ekin hisoblanadi.

- No'xatning ildizi tuproqqa tik va chuqur ketib, yon ildizlari yaxshi rivojlanmaganligi hisobiga suvni kam sarflaydi. No'xatning transpirastiya koeffistenti kichik bo'lganligi sababli sovuqqa chidamliligi oshadi.

- Har bir tuprog-iqlim sharoitida mintaqaning tuprog'i, harorat kabi omillarni hisobga olgan holda no'xat urug'ini mayda va yirikligiga qarab no'xat ekish muddat va meyorlarini belgilash lozim.

• No'xat ekinini almashlab ekish tizimiga kiritilganda yuqori agrotexnik ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni dalani begona o'tlardan tozalaydi, tuproqni donadorligini oshiradi, suv o'tkazuvchanligini va suvni saqlash qobiliyatini yaxshilaydi.

Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida no'xat navlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 104 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -T.: O'zbekiston, 2017. -22 B.
3. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent: 2007. 47 b.
4. Ergashev A. X. Jahon hamjamiyatida don yetishtirishning ilg'or tajribasi // Paxtachilik va donchilik. – Toshkent, 2000. - №3/4. – B 41.
5. Eshmirzayev K., Omonov A. Muammo hal etilsa // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 1997. - №3. – B 33-34.
6. Hamdamov I. H., Mavlonov B. T., Cho'liyeva M. Ayrim no'xat navlari hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarning ta'siri // Q/x ekinlari seleksiyasi va urug'chiligini yanada yaxshilash muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami. SamQXI. – Samarqand, 2004. I jild – 93-96 b.
7. Hamdamov I. H., Shukurullayev P., Mustanov S. No'xat eking, ko'paytiring // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1991. - №6. – B 37-38.
8. Mavlonov B. T. No'xat doni sifatining o'g'itlash meyorlariga bog'liqligi. // Mirzacho'l vohasi tuproqlarining unumdorligini oshirish muammolari va vazifalari.; Respublika ilmiy-amaliy konf. ma'ruzalar to'plami. – Guliston, 2003. – B 119-120.
9. Mavlonov B. T., Xamdamov I. X. No'xat yetishtirishda azotli o'g'it meyorlarining hosil elementlariga ta'siri. // Magistratura talabalari, aspirantlarning qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy to'plami. ToshDAU – Toshkent, 2004. – B 229-231.
10. Mavlonov B. T., Xamdamov I. X. No'xat. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2004. – №6. – B 26.
11. Mavlonov B.T., Xamdamov I.X. Sug'oriladigan yerlarda no'xat yetishtirishning ayrim jihatlari. // O'zbekistonda o'simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari. Ilmiy to'plam. SamQXI. – Samarqand, 2003. – B 24-25.
12. Mustanov S. B. No'xatdan yuqori hosil olish. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnali №3 – Toshkent, 1992 y. – B 33-34.

13. Rahimov A.R. O'simliklarda suv almashinuvini tekshirish. "O'qituvchi"-nashriyoti . T.1974. 63-72 b.

Yormatova D.Yo. Don ekinlari. Toshkent: Mehnat, 2003. 225 b.